

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA SAVDO
VA HUNARMANDCHILIK SOLIQLARI**

*Turdaliyeva Gulasalxon Abdusalom qizi
FDU Tarix fakulteti, Mustaqil izlanuvchi doktarant
Gulasalturdaliyeva886@gmail.com 998996004284*

Annotatsiya: Amir Temur va temuriylar davrida hunarmadlar va savdogarlarga yaratilgan shart-sharoitlar, soliqlar va yig`imlar tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida yozildi.

Аннотация: Условия налоги джигаты, созданные ремесленникам и торговцам во времена Амир Темура и Тимуридов, были написаны на основе исторических и научной литературы.

Annotation: to the artisans and merchants during the reign of Amir Temur and the Timurids created conditions, taxes and collections historical and scientific it was written on the basis of literature.

Kalit so`zlar: Tamg`a, rosti-rusti, sarmoya, xazina, yasoqiy.

Ключевые слова: Тамга, капитал, казна, ясак.

Key words: stamp, rosti-rusti, investment, treasure, yasakiy.

Kirish: Amir Temur soliq siyosatini mamlakat boshqaruvi va rivojining asosiyo`nalishi qilib belgiladi. U o`zining “rosti rusti” shiorining mohiyatiga mos keladigan va soliq to`lovchilar manfaatini himoya qilishga qaratilgan adolatli ibratga loyiq soliq tizimini yaratdi va uning joriy qilinishini izchil nazorat qiladi. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiy etishi eng avvalo hunarmandchilik va ichki savdoning rivojlanishi bilan bog`liqdir.

Asosiy qism: Amir Temur davrida yangi shaharlar, savdo va hunarmandchilik keng rivojlanganligini aytib o`tmoq lozim. Amir Temurning sa`y-harakatlari bilan Buxoro, Samarcand, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi. Ayniqsa, bu davrda hunarmandchilikning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishi katta ahamiyatga ega bo`ldi. Sohibqiron savdo yo`llari rivojiga, uning tinchligiga keng e`tabor berib bordi. Shaxsan o`zining nazorati ostida savdo yo`llari nazorat qilib borilishi savdo karvonlaring xavfsizligini ta`minladi.

Numizmatik olim I.To`xtiyevning tadqiqotlariga ko`ra Amir Temur va Temuriylar davrida 20 ga yaqin soliq va to`lovlar aholidan undirib olinganini qayd qiladi.[1] Amir Temur davrida hunarmandlar va savdogarlar uchun tamg`a solig`i joriy qilingan. Tamg`achilar - savdo-sotiqlidan va bojxona xizmati orqali

keladigan tushumlarni yig`ish ishlariga ma`sul bo`lganlar. Bu davrga kelib savdo-sotiqa rivojlandi. Tegirmonlar, hunarmandchilik ustaxonalari, katta-katta boylar qo`lida to`planib qoldi. Hunarmandchilik va savdo-sotiqa gullab-yashnaydi. Temuriylar davrida, ayniqsa Amir Temur davrida ishlab-chiqarish va savdo munosabatlardagi ijtimoiy adolat masalasi muhim bo`lganligini bir eslatib o`tish joizdir. Yaratilgan shart-sharoitga, mayjud tartibga rioya qilmay, tekin daromad ketidan quvganlar jazo topishi muqarrar edi. Chunonchi, Klavixoning guvohlik berishicha, Amir Temur navbatdagi harbiy yurishdan qaytganidan so`ng, o`zi yo`qligida shahardagi ahvol qanday ekanligini tekshirgan. Shunda bir qator do`kondorlar, jumladan, qassoblar, etikdo`zlar, boshmoqchilar o`z mahsulotlarini haddan ziyod yuqori bahoda sotayotganliklari ma`lum bo`ladi. Ularni ishi darhol sudga berib jazolanadilar, suuistemol qilgan mablag`lari esa tortib olinadi.[2] Sarmoyasi ketib qolgan savdogarga o`z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilgan. [3] Amir Temur davrida poytaxt Samarqand va uning atrofidagi yerlarda savdo-sotiqa va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun Samarqandga keladigan savdogarlarga bir muncha yengilliklar berilgan. Chunonchi, Amudaryodan Samarqandga keladigan savdogarlar hech qanday bojsiz shaharga kiritilganlar. Asosiy maqsad shahar aholisini sonini ko`paytirish va savdoni rivojlantirish bo`lgan. Amudaryodan boshqa hududga o`tmoqchi bo`lganlarga esa daryodagi qayiqlarda podshoh tomonidan tayinlangan qorovullar tayinlangan bo`lib, o`tuvchidan katta boj olingen. Amir Temur chet ellik savdogarlarga katta e`tibor bilan qaragan va o`z sultanati hududida ular uchun ulkan imkoniyatlar yaratib bergen. Agar biror savdogar uning davlati hududida uning mol-mulki talon-taroj qilinsa, shu hudud aholisidan o`g`irlangan mol-mulk qiymatini ikki hissa savdogarga to`lagan hamda huddi shu mablag` Amir Temurni o`ziga besh hissa qilib to`lashi shart bo`lgan. Amir Temur vafotidan keyin uning soliq siyosatini o`g`illari va nabiralari davom ettiradi hususan nabirasi Mirzo Ulug`bekni hukmronligi davrida ham aholidan olinadigan soliqlar va boshqa yig`imlar adolatli qilib olinganligi va biror-bir savdogarning mol-mulkiga davlat tomonidan ortiqcha to`lovlar belgilanmaganligi manbalarda qayd qilingan. Temurshunos olim Bo`riboy Ahmedovning Mirzo Ulug`bek haqida yozgan essesida shunday ma`lumot beradi. Bir kuni Ulug`bek devon ishlari bilan band bo`lib o`tirgan payta uning yoniga bir kishi kelib o`zini savdogar ekanligini aytadi. Xurosandan kelayotganini, karvon Amu suvidan kechib o`tayotgaida qimmatbaho toshini yo`qotganini aytib shikoyat qiladi. Ulug`bek uni tinchlantirib bir yil kutishini, topilmasa qiymatini to`lab berishini aytib uyiga yuboradi. Bir muddat o`tgach o`tgan yilda soliq to`laganlarning ro`yhatini ko`rib turganida Ulug`bek qorako`llik bir kishining 50 tangalik soliq o`rniga 500 tangalik soliq to`laganini aniqlaydi va qorako`llik soliq to`lovchini Samarqandga

chaqirtirib buni sababini so`rashganida, u odam hovliga bir qarg`a og`zidan bir tugunchani tushurib qo`yganini, uning ichidan esa ushbu tosh chiqqanligini, keyin toshni Buxorodagi bir zargarga sotganligini, bir qismini o`ziga ishlatgani va bir qismini esa soliqga bergani, o`zi esa bir kambag`al ekanligini bir boshdan aytib beradi. Ulug`bek buxorolik o`sha zargarni toshni juda ham arzon bahoda harid qilib olganini aniqlaydi, toshni o`z egasiga qaytaradi. [4] Mirzo Ulug`bek o`z davriga qadar din ahli foydasiga hunarmand va savdogarlardan yig`ib olinadigan tamg`a solig`ini davlat foydasiga o`tkazadi. Bu soliqdan keladigan pulni fan va madaniyat taraqqiyotiga sarflaydi.. Ulug`bekni bu qilgan ishi shayhlar va boshqa din arboblarining qattiq noroziligiga sabab bo`ladi. Ulug`bek tashqi savdodan davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko`paytirish maqsadida tamg`a solig`ini birmuncha oshiradi. Bu esa o`z navbatida Mirzo Ulug`bekka qarshi kuchlarning bosh ko`tarishiga olib keladi.

Hukmron sinflar va katta yer egalarining qo`lida boylik to`planishi, ularning dabdabali hayoti va zeb-ziynatga havaslarining tobora kuchayishi, ikkinchidan ichki va tashqi savdoning rivojlanishi, hunarmandchilikning o`sishiga, hunarmandchilik mahsulotlarining nozik, nafis san`at namunalari darajasiga ko`tarilishiga olib keladi. Nozik did bilan bajarilgan mazmundor san`at asari xalq tomonidan yuqori bahoga tuyassar bo`lar edi. Abdurazzoq Samarcandiyning yozishicha Hirot shahridan 1469-yilda xalq sayillari o`tkazilib, bunda hunarmandlar o`z san`atini namoyish qilganlar. Hunar ahli orasida usta Xoja Ali ishlagan ko`za hammaning tahsiniga sazovor bo`ladi. Bu ajoyib ko`zada 32 sohibi hunar tikuvchi, duradgor va boshqalarning o`z dastgoh va korxonalarida ish jarayoni tasvir qilingan edi. Ular su darajada jonli va ishoarli ediki, ko`rgan odam tasviridagi hunar ahllarini beixtiyor jonli harakat qilib turgan kabi his qilar edi.[5] Bunday xalq sayillarini o`tkazilishi hunarmandlarga o`z katta imkoniyatlar bergen.

Xulosa: Amir Temur va temuriylar davrida hunarmandchilik va savdoning rivojlantirish uchun katta e`tibor qaratilgan. Poytaxt Samarcand va uning atrofida savdo qiluvchi savdogalarga katta imtiyozlar berilgan. O`zaro urushlar natijasida Movarounnahr hududlarida hunarmandlar soni kamayib ketganligi bilgan Amir Temur qaysi yurtni bosib olmasin o`sha yurtning eng mohir hunarmandlarini poytaxt Samarcand va uni atrof tumanlariga ko`chirib kelitradi va ularga o`z hunarlarini yerlik xalq vakillariga o`rgatishini tayinlaydi. Bunga misol tariqasida Amir Temur davrining mashxur tarixchilaridan biri Ibn Arabshoh ham bu hunarmandlar orasida Samarcandga onasi bilan olib kelinadi. Yuqoridagi manbalardan kelib chiqgan holda Amir Temur va Temuriylar davrida hunarmandlar va savdogarlarga yetarlicha e`tibor berilganligini qayd qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. To`xtiyev I. Temuriylar sulolasining tangalari. – T.: 1996 – b-14
2. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi., T., “Sharq”, 2001.
3. Ahmedov B, Amir Temur o`gitlari, T;”Navroz”, 22-b.
4. Bo`riboy Ahmedov. Ulug`bek (esse). – T;,”Yosh gvardiya”, 1989, 128-129-b.
5. Naim Norqulov Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar. Urganch, “Xorazm”nashriyoti, 1996, 9-b